

## **TA'LIMIY QADIRYATLAR ASOSIDA ISHLAB CHIQLILGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TAVSIFI VA UNING ASOSIY TAMOYILLARI**

Turg'unov Mirjalol Mirzaxamdami o'g'li  
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada ta'limiy qadriyatlar asosida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi va nazariy-metodologik asoslari o'rganilgan. Shuningdek, aksiologik yondashuv asosida ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya tavsifi va uning asosiy tamoyillari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** aksiologik yondashuv, pedagogik jarayon, kasbiy-pedagogik faoliyat, integrativ, qadriyat, qadriyatli yondashuv, aksiologik iyerarxiya, texnologiya, kognitiv, emotsional, sotsiotsentrik, genetik, milliy, tarixiy, texnologik.

### **KIRISH**

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv shaxsning individualligini tashkil qiluvchi psixik xususiyatlar birligiga tayangan holda o'z texnologiyasi bilan individual yondashuvning muhim psixologik-pedagogik tamoyilini amalga oshiradi. Unga ko'ra, dars va o'quv mashg'ulotlarida har bir ta'lim oluvchining o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi. Bularning barchasi yosh yetakchi o'quv faoliyati orqali ta'lim oluvchi shaxsi rivojlanishiga ko'maklashuvchi optimal sharoitlarni yaratadi. Aksiologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash uchun avvalo pedagogik faoliyatga aksiologik ehtiyojni shakllantirish, ularda milliy ehtiyojni anglashlariga imkon berish, ta'sir ko'rsatish va bu jarayonga qaratilgan qadriyatli pedagogik faoliyatni takomillashtirish talab etiladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

O'zbekistonda talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorlash, qadriyatlar tizimini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy va pedagogik-psixologik asoslari N.Shodiyev, B.Adizov, O.Jamoldinova, I.Isayev, Sh.Mardonov, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, V.Slastenin, D.Ro'ziyeva, B.Xodjayev, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonova, YE.Shivanov, N.Egamberdiyeva, M.Quronov kabilarning ilmiy izlanishlarida milliy, umuminsoniy, ma'naviy-axloqiy, estetik, ta'limiy, tarbiyaviy qadriyatlarning mazmun-mohiti hamda bo'lajak o'qituvchilarda qadriyatlar tizimini rivojlantirish masalasining o'ziga xos jihatlarini ochib berishga alohida e'tibor qaratilgan.

MDH mamlakatlarida pedagoglarning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash, o'qitish jarayonini loyihalashtirish va ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, O.A.Kolesnik, B.T.Lixacheva, A.I.Mishenko, V.A.Slastenin,

L.F.Spirina, L.G.Semushina, V.P.Bespalko, V.M.Monaxov, G.L.Ilin, T.K.Smikovskaya, S.V.Vasekin, O.B.Yepisheva, G.A.Monaxov kabi olimlarning tadqiqotlarida keltirilgan.

Xorijlik olimlardan B.Wilson, J.Kim, Angela Stoff, Benjamin Bloom, Brian Cole, Drapeau Patty, Jaslin Holberg, Merriembar Jeron, Leyle. M.Spencer tomonidan pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning asosi shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardir. U quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi pedagogik jarayonda ta'lim oluvchiga – "shaxsga yangicha qarash", ya'ni insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ☐ pedagogik jarayonda shaxs obyekt emas, balki subyekt hisoblanadi;
- ☐ har bir ta'lim oluvchi qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod egasi hisoblanadi;
- ☐ yuqori etik qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustuvor xislatlari hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida munosabatlarni demokratlashtirish (o'qituvchi – ta'lim oluvchi, ta'lim oluvchi – ta'lim oluvchi) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ☐ ta'lim oluvchi va o'qituvchi huquqlarini tenglashtirish, ta'lim oluvchining erkin tanlab olish huquqi;
- ☐ xatoga yo'l qo'yish huquqi;
- ☐ o'z nuqtai-nazariga ega bo'lish huquqi o'qituvchi va ta'lim oluvchi munosabatining asosi bo'lishi, ya'ni:

a) taqiqlamaslik;

v) boshqarish emas, birgalikda boshqarish;

s) majburlash emas, ishontirish;

d) buyurish emas, tashkil etish;

ye) chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish .

Yuqorida qayd etilgan yangi munosabatlar mazmuni hozirgi jadal suratlar bilan rivojlanayotgan sharoitda kam natija beradigan pedagogikadan o'rinli joylarda foydalanish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda ma'nan va jismonan yetuk yoshlarni tarbiyalash va ularga zamonaviy bilimlar berish sifatini oshirish orqali jamiyat uchun barkamol shaxsni kamol toptirish maqsadi ta'lim-tarbiya sohasida ustuvor qilib belgilangan. Uzluksiz ta'lim jarayonida olib borilayotgan barcha harakatlar shu maqsadni amalga oshirish omilidir. Hozirgi vaqtda barcha fanlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning maqbul yo'llari tadqiq qilinmoqda. Jumladan, pedagogik texnologiya milliy modelining paydo bo'lishi va uning tadrijiy davomi bo'lgan o'quv mashg'ulotlarini avvaldan loyihalash asosida bilim berish ta'lim sohasidagi

yangiliklardan biri sanaladi. Lekin shuni alohida ta'kidlash joizki, pedagogik texnologiya kecha yoki bugun paydo bo'lgan emas, balki har bir tarixiy davrning ta'lim-tarbiya berish usullari, o'z pedagogik texnologiyasi bo'lgan. Ular insonning ma'naviy va moddiy ehtiyojlari oshgani sari rivojlanib borgan.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya tizimining zaruriy qismi ekan, u orqali ta'lim sohasida tub burilishlarni amalga oshirish mumkin. Ma'lumotlilik – ma'rifat asosini tashkil etuvchi bosh g'oya, tabiat va jamiyat aloqadorligini anglab yetish, avtoritar va soxta tafakkur yuritish usulidan voz kechish, sabr-bardosh, qanoat, o'zgalar fikrini hurmatlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash kabi sifatlarni shakllantirishdan iboratdir. Ushbu masalaning yechimi muayyan darajada ta'limni texnologiyalashtirish bilan chambarchas bog'liq.

Ta'lim-tarbiya mazmuniga ajdodlarimiz o'g'itlari, xalqimiz milliy qadriyatlarini singdirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq qilish orqali ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Ayni vaqtda, jamiyat ijtimoiy hayotiga axborotlar oqimi shiddatli ravishda kirib kelmoqda va ko'p sohalarni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda yetkazib berishni jadallashtirishni yo'lga qo'yishni ta'lim tizimining zarur vazifalari sifatida belgilash mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish yuqoridagi muammolarni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

Aslida innovatsion pedagogik texnologiya anchagina murakkab bo'lib, dars berish usullarining avvalgi yaxshi tomonlarini o'zida mujassam etgan zamonaviy tadbiridir. Innovatsion pedagogik texnologiyada dars va o'quv mashg'ulotlari jarayonida amalga oshiriladigan ishlar loyihasi oldindan bosqichma-bosqich va aniq vaqtga mo'ljallanib tuzib olinadi. Loyihada mashg'ulot jarayonida beriladigan tayanch tushunchalar, nazorat savollari, qo'llaniladigan vosita va didaktik materiallar ko'rsatiladi. Talabalarning amaliy mashqlarni bajara olishi barobarida o'zlashtirishi ham doimiy nazorat ostiga olinadi. Innovatsion pedagogik texnologiyaning ta'lim jarayoniga tatbiqi ta'lim jarayonining faqat yaxshi yoki a'lo darajada amalga oshirishini kafolatlaydi. Chunki, rejalashtirilgan dars loyihalari olimlar yoki tajribali pedagoglar tomonidan tuzib chiqiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashda, albatta, o'qituvchidan ijodkorlik, bilim va tajriba talab etiladi.

Mashg'ulotlarda didaktika prinsiplari, qonun-qoidalari, sistemali yondashuv va pedagogik texnologiya tamoyillariga tayanilishi belgilandi. Loyiha tuzishda qaysi o'rinda qanday bilim egallanadi, uni egallash jarayonida didaktikaning qaysi qonun-qoida va prinsiplariga amal qilinadi, o'quv jarayonida qaysi dars turi va bosqichlari, qanday usullar, axborot texnologiyalari va didaktik materiallardan foydalaniladi, degan vazifalar aks ettirildi.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi ikki bosqichda amalga oshiriladi.



1. Darsga umumiy tayyorgarlik. O'qituvchining darsga umumiy tayyorgarligi doimiy ravishda amalga oshirib boriladigan jarayon bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, tayanch o'quv reja, o'quv fani dasturlari va ularga berilgan tushuntirish xatlarini o'rganib chiqish;

☐ o'quv faniga oid yangi ilmiy-metodik adabiyotlar bilan doimiy ravishda tanishib borish;

☐ o'z fani sohasida yangi ma'lumotlarni to'plash, muammoli masala va topshiriqlarni, test materialini jamlash;

☐ har bir darsda qo'llash mumkin bo'lgan ko'rgazmali materiallar va o'quv jihozlarini to'g'ri tanlay olish, ulardan o'rinli foydalanish;

☐ ilg'or pedagogik tajribalarni doimiy ravishda o'rganish orqali o'z bilimlarini kengaytirib borish;

☐ informatsion texnologiyalar dars jarayonida foydalanish mahoratini oshirib borish, elektron darsliklar, matn muharrirlari, internetga joylashtirilgan ma'lumotlardan samarali foydalana olish kabilar talab etiladi.

2. Darsga kundalik tayyorgarlik. O'qituvchining kundalik tayyorlanishi darsni tashkil etish, ta'lim oluvchilarga beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni qay darajada o'zlashtirishini ta'minlaydi. Darsga tayyorlanish algoritmi (qoidalar majmui) barcha omillar, holatlarni hisobga olish va kafolatlaydigan izchil tadbir bo'lishi zarur. Shuning uchun, o'qituvchi har bir darsga tayyorlanishda quyidagi tavsiyalarga rioya qilishi zarur:

Dars o'qituvchiga katta ma'suliyat yuklaydi. Shuning uchun har bir darsga puxta tayyorlanish tajribali o'qituvchi uchun ham, yosh o'qituvchi uchun ham bir xil mas'uliyat yuklaydi. Bunda har bir ta'lim oluvchi shaxsini atroflicha o'rganish talab etiladi, chunki u ko'zlangan maqsadga erishishning asosi hisoblanadi.

Talabalarning kasbiy tayyorgarligini amalga oshirish har bir o'quv kursida bosqichma-bosqich shakllantirishga muvofiq amalga oshiriladi.

Pedagog maqomini ro'yobga chiqarish bosqichida (birinchi kurs) shaxsning yangi ijtimoiy roli, kasbning umumiy ilmiy asoslarini o'zlashtirish bilan bog'liq yaxlit rivojlanishi kuzatiladi. Shaxsning boshqalar ta'siriga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Bu davrda talabalar odatda o'z rollarini farqlamaydilar. Talabalar jamoa hayotining o'ziga xos shakllari bilan tanishadilar. Bu bosqichda talabalar yangi ijtimoiy aloqalarni o'rnatadilar, turli sharoitlarga moslashadilar.

Kasbiy o'z-o'zini bilish bosqichida (ikkinchi kurs) talabalar shaxsining ixtisoslashtirilgan rivojlanishi davom etadi, ularning madaniy talab va ehtiyojlari shakllanadi. Ular ishonch va mustaqillikka erishadi, nafaqat ta'lim va tarbiyaning barcha shakllariga kiritiladi, balki jamoat tashkilotlarida ham faol ishtirok etadi. Bu davrda asosan umumkasbiy fanlarga e'tibor ortadi.

Kasbiy o'z-o'zini anglash bosqichida (uchinchi kurs) talabalarning ixtisoslik o'quv fanlariga bo'lgan diqqati mustahkamlanib, ularning kasbiy faoliyat motivlari mustahkamlanadi. Bu

bosqichda ilmiy izlanishga qiziqish ortadi va tanlangan kasbning xususiyatlari o'rganiladi. Shu bilan birga, talabalarning ijtimoiy faolligi rivojlanadi va o'z-o'zini tashkil etish darajasi ortadi. Kasbiy tayyorlik bosqichi (to'rtinchi kurs) pedagogik faoliyatga bo'lgan munosabat bilan bog'liq bo'lib, mutaxassis ishining usul va texnologiyalarini o'zlashtirishga undaydi. Bu bosqichda talaba pedagogik tajribani egallash uchun amaliyot joyini tanlashga ko'proq ongli ravishda yondashadi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarni qo'llashda fan o'qituvchisining axborot kommunikativ kompetentligi va kasbiy faoliyatini tashkil etish yo'llari o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligida tadbiq etiladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda an'anaviy, noan'anaviy, interfaol va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash hamda o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan darslarni tashkil etish va amalga oshirishda fan o'qituvchisining kasbiy faoliyatni tashkil etish yo'nalishlari bayon etilgan.

Zamonaviy sharoitda talabalarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va maxorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda.

Muammoli ta'lim texnologiyasi(muammo va muammoli vaziyat). Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasining asosiy vazifasi muammoli ta'lim yo'nalishi sanaladi.

Muammoli ta'lim turi ilmiy-uslubiy jixatdan 3 xil ko'rinishga ega.

- 1.Muammoli vaziyatni vujudga keltirish.
- 2.Muammoning qo'yilishi.
- 3.Muammoning yechimini topish.

Muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko'p shakllantirish o'qituvchiga bog'liq. Muammoli vaziyatning axamiyati shundaki, u talabalar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va talabalarning izlanishiga, fikrlashga o'rgatadi.

Muammoli ta'lim o'qituvchi raxbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo talabalarning faol, mustaqil faoliyati natijasida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayoninni tashkil etishni nazarda tutadi.

Muammoli o'qitish jarayonida talabalarga tadqiqiy, evristik, va muammoli vaziyatlarni taxlil qilish bo'yicha topshiriqlar beriladi, Bunda:- masalalarni tuzish bo'yicha;-shakllantirilmagan savol bilan;-ortiqcha ma'lumotlar bilan;-o'zining amaliy kuzatuvlari asosida mustaqil umumlashtirish;-yo'riqnomalardan foydalanmasdan qandaydir obyekt mohiyatini bayon

etish;-olingan natijalarni qo'llash chegaralarini va darajalarini aniqlash;-xodisaning namoyon bo'lish mexanizmini aniqlash; - "Bir laxzada" topish kabi topshiriqlarni berish mumkin.

Muammoli vaziyatlarda yechimga kelishning algoritmi quyidagi tartibda amalga oshiriladi: - muammoni qo'yish, -ma'lumotlar fondini to'plash, - ishlash, -yechim modelini aniqlash, - qo'shimcha ma'lumotlar to'plash va ularni tanlangan yechim modelini aks ettirish, -yangi ma'lumotlar va yechim modeli o'rtasidagi zidlikni aniqlash, zidlikni yechimini topish va yangi yechim modelini yaratishdan iboratdir.

"Muammoli vaziyat" usuli – ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini taxlil qilish, xamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan usuldir.

"Muammoli vaziyat" usuli uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi zarur. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks xolda yechimni topa olmaslik, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. "Muammoli vaziyat" usuli qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini taxlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar. "Muammoli vaziyat" usulining bosqichlari: -ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi; -ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalarni va shartlari bilan tanishtiradi; - ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruxlarga ajratadi; -kichik guruxlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar.

Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va xar bir gurux taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

1.Bu bosqichda muammoning oqibatlari to'g'risidagi fikr-muloxazalarni taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

2.Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muxokama va taxlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.

3.Kichik guruxlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

4.Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Gurux ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

## XULOSA

Xulosa qilganda, ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirishda, avvalo, uning idrokini kuchaytirish va xotirasini mustahkamlash asosida o'quv materiallarining esda saqlanishini ta'minlash zarur. Dars maqsadiga erishish uchun ta'lim oluvchilarning bilim saviyasini hisobga olish, o'quv materiallarini to'g'ri tanlash, jihozlashga jiddiy e'tibor berish, o'quv materiallarining



tushunarli bo‘lishi uchun zarur metod va usullarni to‘g‘ri tanlash hamda o‘rinli qo‘llay olish muhimdir.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. Пед.фан док. Дисс... афтореферат. Тошкент.: 2007. –Б. 132.
2. Очилов М, Очилова Н. Ўқитувчи одоби. Тошкент.: Ўқитувчи. 1997. –Б. 6.
3. Педагогика фанидан изоҳли луғат. Тошкент.: Ўқитувчи. 2009. –Б.213.
4. Подласый И. П. Педагогика: 100 вопросов– 100 ответов. – М.: ВЛАДОС-пресс, 2004. – С. 83.
5. Рахимов Б.Х. Бўлажак ўқитувчида касбий маданий муносабатларини шакллантириш тизими. Тошкент.: Фан. 2005. –Б. 10.
6. Сатторов А.Э.Бўлажак жисмоний маданият ўқитувчиларида касбий маданиятни шакллантиришнинг педагогик асослари ва технологиялари. Автореферат, Тошкент в. Чирчиқ-2019 йил.
7. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. / Пер. с англ. – М. : Политиздат, 1992. – С. 488-494.
8. Тожиев М., Баракаев М., Хуррамов А.Ж. Муаммоли вазиятлар методидан фойдаланиб таълим жараёнини ташкил этиш методикаси // Динамик системаларнинг долзарб муаммолари ва уларнинг татбиқлари. Республика илмий конференция материаллари. – Т., 2017. – Б. 294-296.
9. Эрдниев П.М., Эрдниев Б.П. Укрупление дидактических единиц в обучении математике. – М.: Просвещение, 1986. – С. 35-36.